

MUNDARIJA:

1-BOB. TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIGI VA UNING NAZARIY ASOSLARI

- 1.1 Tijorat banklarining likvidligi xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar
- 1.2 Tijorat banklari likvidligini boshqarish bo'yicha xorij tajribasi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Bank tizimini erkinlashtirish va isloh qilish iqtisodiyotning real sektor korxonalarini uchun ancha rivojlangan muhitni ta'minlash, kichik va xususiy tadbirkorlikning amaliy faolligini oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimiz korxonalarini raqobat-bardoshligi oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatish, mamlakat iqtisodiyotiga qo'yilayotgan jamg'armalar va investitsiyalar darajasi jiddiy ravishda o'sishiga ko'maklashish, makroiqtisodiy barqarorlikni va iqtisodiy o'sish tendentsiyalarini mustahkamlash yo'li bilan iqtisodiyotda ijobiy natijalarga olib keladi.

Bizga ma'lumki, bozor iqtisodiyotida banklar asosiy rol o'ynaydi, chunki ularning yordamida qayta taqsimot jarayoni yanada tezlashadi va kuchayadi. Bozor iqtisodiyoti talablariga javob beruvchi bank tizimini shakllantirish, banklarning moliya bozorida vositachilik rolini faollashtirish, ularning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash, faoliyatini jahon bank amaliyotiga yaqinlashtirish va pirovard natijada, banklarning ichki va xalkaro moliyaviy bozorlarda raqobatbardoshligining yuqori darajasiga erishish muhim hisoblanadi.

Mamlakatimiz iqtisodiy tizimida zarur zaxiralar va resurslar bazasi yaratilganligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti kitobida ta'kidlagan: "O'zbekistonda moliyaviy-iqtisodiy, budjet, bank-kredit tizimi, shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalarini va tarmoqlarining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun etarli darajada mustahkam zaxiralar yaratilganini va zarur resurslar bazasi mavjud ekanini ta'kidlash joiz"¹. Shuningdek, Mamlakatimiz moliya-bank tizimi barqaror va ishonchli faoliyat yuritib, yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etib kelmoqda. 2012-yilda bank tizimining jami kapitali 24,3 foizga, so'nggi uch yilda esa ikki barobar ko'paydi.²

Tijorat banklarining faoliyati foyda olishga yo'naltirilgan bo'lib bunda, albatta, aktivlarni to'g'ri joylashtirish orqali erishiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank

¹ "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari/I. A. Karimov"-T.: O'zbekiston, 2009. – 8b.

² Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. I. A. Karimov"-T.: O'zbekiston, 2013. – 7b

foydasining iqtisodiy mohiyati yangicha ijtimoiy-iqtisodiy tus olib bormoqda. Chunki tijorat banklarining foydasi bank kapitali to'planishining va bank rivojlanishining asosiy manbasidir. Kapitalning yetarliligi o'z navbatida banklarning to'lovga qobilligini ta'minlaydi. Shuning uchun, mamlakatimiz tomonidan tijorat banklarining kapitallashuv darajasiga katta e'tibor bermoqda. Ya'ni banklarning kapitallashuv darajasi yildan yilga oshirib borilmoqda. Prezident farmoni asosida "Mikrokreditbank" ustav jamg'armasini 72 milliard so'mga oshirish va uning hajmini 150 milliard so'mga yetkazish haqida qaror qabul qilindi³. Shuningdek, Mamlakatimiz moliya-bank tizimi barqaror va ishonchli faoliyat yuritib, yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etib kelmoqda. 2012-yilda bank tizimining jami kapitali 24,3 foizga, so'nggi uch yilda esa ikki barobar ko'paydi. Bugungi kunda kapitalning yetarlilik darajasi 24,0 foizdan oshib, bu esa qabul qilingan umumiy xalqaro standartlardan 3 barobar ortiqdir. 2012-yil yakunlari bo'yicha bank tizimining likvidligi 65,0 foizdan ortmoqda, bu esa talab etiladigan minimal darajadan 2 barobar yuqoridir⁴.

Iqtisodiy rivojlanish bosqichida tijorat banklarining asosiy ish tamoyillaridan biri - yuqori darajada foyda olishga qaratilgan bo'ladi. Biroq banklarning faoliyati doimo foyda kurish bilan bog'liq bo'lmasdan, ular faoliyatida zarar ko'rish ehtimoli ham uchrab turishi mumkin. Banklar faoliyati ijobiy bo'lgan hollarda, ularning foyda olish va salbiy faoliyat natijasida banklarning zarar ko'rish ehtimoli yuqori darajada bo'ladi. Yuqorida aytilgan foyda keltiruvchi rezervlarni amalda tadbiq qilish jarayonida bankning ish faoliyati iqtisodiy jihatdan risk bilan bog'liq bo'ladi.

Tijorat banklarining ishonchliligini va likvidligini ta'minlashda uning to'lovga qobilligini oqilona boshqarishning optimal yo'llarini izlash va qo'llash katta ahamiyatga ega. Buning uchun tijorat banklarining to'lovga qobilligini boshqarish strategiyasini ishlab chiqish zarurdir.

³ "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari/I. A. Karimov"-T.: O'zbekiston, 2009. – 11b.

⁴ Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish.I. A. Karimov"-T.: O'zbekiston, 2012-yil.

Hozirgi kunda banklar o'z aktiv va passivlar portfelini bir butun shaklida ko'rib chiqishadi, bu esa yuqori daromad va qulay risk darajasi kabi umumiy maqsadlarga erishishda bankning portfellar to'plamini belgilab beradi. To'lovga qobilligini boshqarish bankka depozitlar va qarzlarni ish faoliyatining davriy va fasliy tebranishlar ta'siridan himoya qilish hamda bank maqsadlarini amalga oshirishga oshirishga yordam beruvchi aktivlar portfelini shakllantirishga imkon beradi.

Odatda iqtisodiyotning holati banklar faoliyati bilan aniqlanadi. Banklar iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi organ hisoblanib moddiy ishlab chiqarishni tashkil qilish va olib borishda vositachi sifatida, kapital aylanishining uzluksizligini ta'minlash, bo'sh pul mablag'larini yig'ish va ularni pul zarur bo'lgan sub'ektlar o'rtasida taqsimlash bo'yicha faoliyat olib boradi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini inqirozdan keyingi rivojlanish davrida tijorat banklarini yirik investitsiya institutlariga aylantirish va ularning fermer xo'jaliklarini, kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlarini moliyalashtirish jarayonidagi rolini oshirish vazifasini Prezidentimiz I.A. Karimov tomonidan qo'yilganligi O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining to'lovga qobillik darajasini yanada oshirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Ayni vaqtda, respublikamizning ayrim tijorat banklarida ularning likvidligiga salbiy ta'sir etuvchi omillar saqlanib qolmoqda. Xususan, yirik tijorat banklari depozit bazasining tarkibida talab qilib olinadigan depozitlarning salmog'i 50 foizdan yuqoridir. Xalqaro standartlarning talablariga ko'ra, ushbu ko'rsatkich 30 foizdan oshib ketmasligi lozim. Aks holda, ushbu omil tijorat banklarining to'lovga qobilligiga nisbatan kuchli salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi.

Umuman olganda, respublikamiz tijorat banklarining likvidligini ta'minlash va yanada mustahkamlashga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishning zarurligi ushbu mavzuni mustaqil dissertatsiyaning tadqiqot ob'yekti sifatida o'rganish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tijorat banklarining to'lovga qobilligini ta'minlash masalasining nazariy va amaliy jihatlari xorijlik iqtisodchi olimlar - D.MakNoton, D.Polfreman, J.Matuk, I.Noskova, K.Barltrop, O.Lavrushin, E. Dolanlarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan⁵.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A.Vaxabov, T. Qoraliyev, SH. Abdullayeva T. Bobaqulov, N.Jumayev, O.Sattarovlarning ilmiy izlanishlarida tijorat banklarining to'lovga qobilligi va likvidliligini ta'minlash masalalarining nazariy va amaliy jihatlari o'z ifodasini topgan⁶.

Dissertatsiya ishining maqsadi: O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidligini ta'minlash va yanada mustahkamlashga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Dissertatsiya ishining vazifalari:

- tijorat banklarida likvidlik riskining nazariy asoslarini o'rganish va ularning ilmiy-amaliy ahamiyatiga baho berish;

- xorijiy davlatlarning tijorat banklarining likvidligini ta'minlash va mustahkamlash borasidagi ilg'or tajribalarini o'rganish va ulardan respublikamiz bank amaliyotida ijodiy foydalanish yuzasidan ilmiy - amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

- O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari likvidligini amaldagi holatini tahlil qilish va mavjud tendensiyalarni aniqlash;

- respublikamiz tijorat banklarining to'lovga qobilligi va likvidliligini ta'minlash va mustahkamlash bilan bog'liq bo'lgan muammolarni aniqlash va ularni hal qilishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

Dissertatsiya ishining ob'yekti bo'lib, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari hisoblanadi.

⁵ Эдвин Дж. Долан и др. Деньги, банковское дело и денежно-кредитная политика. – СПб.: “Санкт-Петербург Оркестр”, 1994. – С. 90-93.; К.Барлтроп и Д.МакНотон. Банковские учреждения в развивающихся рынках. - Всемирный банк, Вашингтон, 1993.- С. 53-54.; Лаврушин О.И. Управление деятельностью коммерческого банка. - М.:ЮРИСТЪ, 2003.- С. 228.; Носкова И.Я. Валютные и финансовые операции. – М.:ЮНИТИ, 1998. – С.46 - 47.

⁶ Вахабов А.В. Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. В 2-х т. – Ташкент: Университет, 2003. – 538 с.; 3.5. Жумаев Н.Х., Кудайбергенов Ж.Ш. Международные финансовые отношения. Валютный курс и пути их регулирования. –Ташкент: Iqtisod-Moliya, 2006.

Dissertatsiya ishining predmetini tijorat banklarining likvidligini ta'minlash jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar tashkil etadi.

Dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi. Tadqiqot ishi tarkiban kirish, uchta bob, xulosa va takliflar shuningdek, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Mazkur "Dissertatsiya ish"ining rejalari nazariy jihatdan yoritish bilan birgalikda ko'proq e'tibor amaliy jihatdan o'rganishga qaratilgan.

Birinchi bob tijorat banklarining likvidlik riskini boshqarishning nazariy asoslari deb nomlanib, bu bobda asosan, tijorat banklarining to'lovga qobilligini boshqarish xususidagi xorij hamda o'zbek olimlarining ilmiy-nazariy qarashlari keltirilgan. Shuningdek, Tijorat banklari to'lovga qobilligini boshqarish bo'yicha xorij tajribasi bilan bog'liq rejalar yoritilgan.

1-BOB. TIJORAT BANKLARINING TO'LOVGA QOBILLIGINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1 Tijorat banklarining to'lovga qobilligini boshqarish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar

Iqtisodiy adabiyotlarda to'lovga qobillik likvidlikka nisbatan ham keng, ham tor kategoriya sifatida ko'riladi. Keng kategoriya sifatida o'rganilganda to'lovga qobillik ichki va tashqi omillar doirasida ko'ribchiqiladi, likvidlik esa, faqat ichki omillar doirasida qaraladi. Ba'zi qarashlarga ko'ra, likvidlik bankning dinamik holatini belgilaydi, to'lovga qobillik esa, ma'lum bir sanaga belgilangan to'g'ri keluvchi holatni, ya'ni majburiyatlarini qoplay va to'lay olish qobiliyatini bildiradi.

Tijorat banklarining to'lovga qobilligi va likvidligini boshqarish bo'yicha nazariy qarashlar bir qator taniqli iqtisodchi olimlarning, shu jumladan, E. Dolan, J.Matuk, O.Lavrushin, K.Barltrop, D.MakNoton, D.Polfremanlarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan.

Prof. O.I.Lavrushinning fikriga ko'ra, Bank tizimida mijozlar ishonchini qozonadigan asosiy omil bu - to'lovga qobillik. Tijorat banklarining to'lovga qobilligining asosiy ko'rsatkichi esa likvidlik deb hisoblaydi⁷.

Banklarning to'lovga qobilligi bo'yicha mamlakatimiz iqtisodchi olimlari ham ko'plab izlanishlar olib borgan. Shundan, Yo. Abdullayev va T. Qoraliyevlarning fikriga ko'ra, to'lovga qobillik bu likvidlik tushunchasiga nisbatan kengroq bo'lib, bank zarur muddatlarda omonatchilar va davlat oldidagi majburiyatlarini to'la summada bajara olish layoqatini bildiradi⁸.

Shuningdek, Prof. Sh. Abdullayeva banklarning to'lovga qobilligi bo'yich quyidagi fikrlarni yuritgan: to'lovga qobillik bankning zarur muddatlarda qarz va majburiyatlarini to'lay olish layoqatini bildiradi. Shuni ta'kidlash lozimki, likvidligi bo'lmagan bank to'lovga layoqatli bo'la olmaydi. Amalda aynan likvidlik to'lovga qobiliyatsizlikning asosiy sababi bo'lib, ularni bankrot va bank tizimining beqarorligiga olib kelishi mumkin⁹.

⁷ “Bankovskiy menejment” darslik. M.: “Knorus” 2009-yil. 207-bet. O.I. Lavrushin

⁸ “Bank ishi” darslik. –T.: “Iqtisod-Moliya ”, 2009 yil. 149-bet. Yo. Abdullayev, T. Qoraliyev, Sh. Toshmurodov, X. Abdullayeva

⁹ “Bank ishi”.darslik –T.: “Iqtisod-Moliya ”, 2003-yil. 150-bet. Abdullayeva Sh. Z

Tijorat bankining faoliyatini olib borishning asosida, eng avvalo, uning likvidligi yotadi. Amalda aynan nolikvidlik banklarning to'lovga layoqatsizligi, ularni bankrotlikka va bank tizimining beqarorligiga olib keladi.

“Likvidlik” atamasi (lotincha liquidus - oquvchan, suyuqlik) sotish, aktivlarni pul mablag'lariga aylantirishning amalga oshirilishini, ya'ni bankning Markaziy bank yoki vakil banklardagi naqd pul mablag'laridan oqilona foydalanish, likvid aktivlarni sotish imkoniyati va h.k.larni anglatadi.

Tijorat bankining likvidligi uning balans tuzilmasi bo'yicha belgilanib, unda aktivlar passivga doir muddatli majburiyatlarni qoplash uchun o'z qiymatini tushirmagan holda yo'qotishlarsiz pul mablag'lariga aylantirilishi lozim.

Bank o'z likvidligini tahlil qilish masalasi bank nazorati bo'yicha Bazel bitimida, ayniqsa, chuqur ko'rib chiqilgan. Ushbu bitimga muvofiq “likvidlikni tahlil qilish bankning o'z majburiyatlarini muddatida va zarar ko'rmagan holda bajarish layoqatini aniqlash zaruratini ko'zda tutadi. Aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchi banklarning o'z majburiyatlarini benuqson bajarishiga bog'liq. Demak, banklarning likvidligi hamda to'lovga layoqatliligi banklarning umumiy moliyaviy barqarorligini ta'minlash lozim bo'lgan bank nazorati organlarini ko'proq o'ylantiradigan soha hisoblanadi. Mijoz har safar o'z hisobvarag'idan pul olmoqchi bo'lganda bankning o'z majburiyatini bajarish zarurati yuzaga keladi. Majburiyat bajarilmagan taqdirda bank o'z obro'sini yo'qotadi va bu ham bankni bankrotlikka olib kelishi mumkin. Likvidlikni ta'minlashning eng oddiy usuli bankning bir qism aktivlarini likvid shaklida, masalan naqd pul, Markaziy bank va boshqa banklardagi vakillik hisobvarag'idagi qoldiqlar, davlat qisqa muddatli obligatsiyalari (DQMO) shaklida saqlash hisoblanadi.

Banklar likvidligining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni hisobga olgan holda likvid aktivlarining zarur miqdorini belgilab olishlari lozim. Mazkur omillarga quyidagilar kiradi:

- omonatlarning ko'payishi yoki kamayishiga ko'ra mablag'larga ega bo'lish yoki ularni yo'qotish; bank jalb qilingan mablag'lar bo'yicha majburiyatlarni yaqin muddatlarda

bajarishi lozim, bu omonatlar va boshqa passivlarning muddatlari bilan bog'liq hamda bankda qoladigan depozitlar miqdorini (asosiy depozitlar) hisobvaraqdan olinadigan yoki darhol to'lanadigan depozitlar va boshqa passivlar ("Uchuvchan mablag'lar") bilan qiyoslagan holda tahlil qilishni ko'zda tutadi;


- omonatlar summasining o'sishi yoki qisqarishiga muvofiq maj-buriy zaxiralar me'yoriy miqdorining ko'payishi yoki kamayishi ham likvidlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi, chunki majburiy zaxiralar me'yorini bajarishga yo'naltirilgan mablag'lar likvid aktivlarning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi;

- ssudalar va investitsiyalar summasining oshishi yoki kamayishiga ko'ra mablag'lar oqib kelishining ko'payishi yoki kamayishi; ushbu omilning ta'siri shundan iboratki, ssudalar va investitsiyalar miqdorining oshishi likvid aktivlar ulushini kamaytiradi, chunki investitsiyalar aksariyat hollarda uzoq muddatga jalb qilinadi.

Daromadlilik oshayotgan bir paytda likvidlikning maqbul darajasini ta'minlash uchun bank jalb etilgan omonatlar muddatlari va ularga doir xarajatlarni tahlil qilib chiqib, kredit qo'yilmalari va investitsiyalar muddatlari hamda rejalashtiriladigan daromadlar bilan taqqoslash lozim. Bunday taqqoslash joylashtirilgan va jalb etilgan mablag'larni muddatlari bo'yicha solishtirish asosida bank likvidligi holatini aniqlash, shuningdek, likvidlikning zarur darajada eng ko'p foydaga erishish uchun qisqa, o'rta va uzoq muddatli kreditlarning optimal nisbati bilan kredit siyosatini olib borish imkoniyatini beradi.

"To'lovga layoqatlilik" "likvidlik"ka nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, bank zarur muddatlarda kreditlar-omonatchilar, banklar davlat oldidagi majburiyatlarini to'la summada bajara olish layoqatini bildiradi. Lekin u faqat balans likvidligiga bog'liq bo'lib qolmasdan, balki boshqa bir qator faktorlarga ham bog'liqdir. Ular qatoriga quyidagilar kiradi: mintqa yoki respublikadagi siyosiy va iqtisodiy holat, pul bozorining holati, Markaziy bankning qayta moliyalashtirish imkoniyati, qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanganligi, bank qonunchiligining mavjudligi va zamonaviyligi, bankning o'z kapitali bilan ta'minlanganligi, mijozlar va partner-

banklarning ishonchliligi, bankdagi menejment darajasi, mazkur kredit muassasasi bank xizmatlarining maxsuslashtirilganligi hamda xilma xilligi va boshqa omillar kiradi. Shu bilan bir vaqtda ko'rsatilgan omillar to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita bank balansi likvidligiga ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, bir-biri bilan ma'lum darajada aloqada bo'ladi. (Aytilganlarni 1-chizmada ko'rsatish mumkin).



1-chizma. Bankning to'lovga qobilligi va likvidligiga ta'sir qiluvchi omillar¹⁰

Tijorat banklarining balansi ikki qismdan iborat bo'ladi: aktiv va passiv. Bank passivlari tarkibiy jihatdan va iqtisodiy mazmuniga ko'ra, bankning o'z mablag'lari va uning majburiyatlaridan tashkil topadi. O'z navbatida bank majburiyatlari iqtisodiy mazmuniga ko'ra jalb qilingan va qarz mablag'larga bo'linadi. Demak, bank passivlari:

1. Bank kapitali- bankning xususiy mablag'lari
2. Jalb qilingan mablag'lar.

¹⁰ "Pul, kredit va banklar". darslik –T.: "Iqtisod-Moliya", 2007 yil. 322-bet. Abdullayeva Sh. Z

3. Qarz mablag'laridan iborat.

Bank aktivlarini iqtisodiy mazmuni tarkibiga ko'ra bir necha qismlarga ajratish mumkin. Bunda aktivlarning muddatiga ko'ra yoki likvidligiga ko'ra ma'lum tarkibiy qismlarga ajratish mumkin. Aktivlarni likvidligiga ko'ra quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

1. Yuqori likvidlikka ega bo'lgan aktivlar.
2. O'rtacha likvidlikka ega bo'lgan aktivlar.
3. Likvidligi past bo'lgan aktivlar.

Tijorat banking balansi shu bank resurslarining ahvolini, ularni shakllantirish manbalarini, shuningdek, hisobot davrining boshidan oxirigacha bo'lgan bank faoliyatining moliyaviy natijalarini pul bilan ifodalab, ta'riflab beradi. Balansdagi ma'lumotlarni tahlil qilib chiqish yo'li bilan banklarning ma'lum davr ichidagi faoliyatini har tomonlama bilib olsa bo'ladi. Balansning tahlili bankning o'ziga tegishli mablag'lari qay tariqa o'zgarib borayotganligini, bank aktivlarining tarkibi va ularning qaysi tomonga qarab o'zgarayotganini, bankning likvidlilik va to'lovga layoqatlilik ko'rsatkichlari darajalarini bilish imkonini beradi.

Tijorat banki barqaror holatining asosi bo'lib, uning moliyaviy barqarorligi xizmat qiladi. Bankning moliyaviy barqarorligiga turli ichki va tashqi omillar ta'sir ko'rsatadi. Bu omillar ichida bankning moliyaviy bozordagi raqobatdoshligi, doimiy mijozlarning mavjudligi va bank amaliyotlarini o'tkazish hamda hisobini rasmiylashtirishda ilg'or texnologiyalarni qo'llash omillari muhim o'rin tutadi. Bu esa, samaradorlikni oshirishga va bankning ishonchli hamkor sifatida obro'sining mustahkamlanishiga imkon beradi.

Bankning ichki barqarorligi - bu tijorat banki faoliyatining barqaror, yuqori natijalarni ta'minlovchi passivlar va aktivlar tarkibining holati va moliyaviy natijalar dinamikasidir. Ichki barqarorlikka erishish asosida ichki va tashqi omillar o'zgarishiga faol javob berish tamoyili yotadi.

Tijorat bankiga nisbatan tashqi barqarorlik, ushbu bank faoliyat ko'rsatayotgan iqtisodiy muhit barqarorligi bilan belgilanadi. Tashqi barqarorlikka butun mamlakat

miqyosidagi bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan boshqarish tizimi orqali erishiladi. Bankning moliyaviy mustahkamligi tahlili asosida bank moliyaviy mustahkamligi belgilari, holati o'zgarishining izchilligini o'z ichiga olgan trendni tadqiq qilish, uning turli belgilari o'zgarishlari o'rtasidagi aloqalarning sabab va oqibatlarini aniqlash yotadi. Bu moliyaviy mustahkamlik trendini tadqiq qilish uchun bank moliyaviy holatining bir necha yillik ko'rsatkichlarini taqqoslash lozimligini bildiradi. Bu retrospektiv tahlil bilan birgalikda perspektiv tahlilni amalga oshirish mumkinligi va zarurligini, jumladan, moliyaviy holatning keyingi davrdagi prognoz qilishni va moliyaviy mustahkamlik rivojining umumiy trendini aniqlash lozimligini yuzaga keltirdi.

Banklarning moliyaviy mustahkamligini o'rganishdagi boshlang'ich jihat Markaziy bankning tijorat banklari faoliyatiga qo'yadigan tartibga soluvchi talablaridir. Banklarning moliyaviy mustahkamligini oshirishga yo'naltirilgan ushbu talablarning samaradorligi mazkur mamlakat iqtisodiyoti, ishlab chiqarish va xizmat sohasining, jumladan, bank infratuzilmasining rivojlangan mamlakatlarda shakllangan tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tartiblarini o'rganish, O'zbekistonda tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tartibini takomillashtirishda juda muhim ahamiyatga ega.

Bankning moliyaviy barqarorligini tahlil qilish quyidagi asosiy yo'nalishlarda olib boriladi:

1. Retrospektiv tahlil. Tahlilning ushbu yo'nalishida Markaziy bank tomonidan banklar uchun o'rnatilgan iqtisodiy normativlarga tijorat banklari tomonidan rioya qilinishini nazorat qilishga asoslangan moliyaviy barqarorlikning asosiy ko'rsatkichlari va belgilarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Moliyaviy barqarorlikni tahlil qilishning ushbu yo'nalishi quyidagi sohalar: likvidlilik, foydalilik, aktivlar sifati, kapitalning yetarliligi va boshqarishning sifati tahlillaridan iborat.

2. Perspektiv tahlil. Moliyaviy barqarorlikni perspektiv tahlil qilishning maqsadi tijorat banki faoliyati samaradorligini prognoz qilish hisoblanadi.

Tijorat banki moliyaviy barqarorligini baholash moliyaviy resurslarning shakllanishi, taqsimlanishi va ulardan foydalanish jarayonida namoyon bo'luvchi moliyaviy holatni tahlil qilishdan boshlanadi. Shunga muvofiq, moliyaviy tahlilning ketma-ketligi, barcha jarayonlarni bosqichma-bosqich ko'ribchiqishni, jumladan, moliyaviy resurslarning mavjudligi, ularning shakllanishi, taqsimlanishi va ulardan foydalanishni tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

To'lovga qobiliyatlikni nafaqat tashqi ko'rinish, balki ma'lum bir vaqtda va moliyaviy mustahkamlikning barcha omillari ta'sirida hosil bo'lgan ma'lum moliyaviy holatning natijasi deb qarash lozim.

Likvidlik keng ma'noda qarzdorning kreditor oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olishi hisoblanadi. Likvidlik iqtisodiyotning barcha sohalari uchun xarakterli bo'lib, shu bilan birga o'ziga xos bank muammosi hisoblanadi. Chunki, pul bir vaqtning o'zida bankning ham aylanma kapitali, ham faoliyati mahsuli bo'lib, korxonalar aktivi esa asosan natural buyum shaklida mavjud bo'ladi.

Bank likvidligi bu bankning o'z oldida turgan majburiyatlarini bajara olishi, mijozlarning kreditga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishi va omonatchilarning depozitlarni qaytarib olish bo'yicha talablarini o'ndira olish qobiliyatidir. Bundan tashqari likvidlik bankning bozorda xavfsizligi va qarzlarni o'z vaqtida qaytara olishga qodirligini oshkor qiladi, bankka aktivlarni foydasiz sotish yoki banklararo bozorda mablag'larni jalb qilish bilan bog'liq bo'lgan foydani yo'qotish xavfidan qutulish imkonini beradi.

Bank likvidligining asosiy sharoitlaridan biri, uning aktivlari likvidligidir.

Likvid aktivlar - ularning yaxshi ma'lum bo'lgan bozor narxining shakllanishini ta'minlaydigan doimiy ravishda sotiluvchi va sotib olinuvchi aktivlarning alohida turi bo'lib, banklar ularni qisqa muddat ichida sotib olishga tayyor bo'lgan xaridorni topishi mumkin. Bunday aktivlar qatoriga naqd pullar, davlat qisqa muddatli obligatsiyalari, qisqa muddatli (yetti kungacha) banklararo kreditlar kiradi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OESR) davlatlari hukumatlari hamda fond bozori rivojlangan

davlatlarining mashhur transmilliy kompaniyalarining qimmatli qog'ozlari ham yuqori likvidlikka egadir.

Nolikvid aktivlar deb, bozor narxini kotirovka bo'yicha aniqlash mumkin bo'lmagan va bu turdagi aktivlarning xarid narxi sotuvchi va xaridor o'rtasidagi kelishuv natijasida xususiy tarzda aniqlanadigan aktivlarga aytiladi. Bunday aktivlarning qiymati katta miqdordagi o'zgarishlarga uchrab turishi taqqoslashni qiyinlashtiradi. Bu turdagi aktivlarga, masalan, kreditlar, qimmatli qog'ozlar bozorida kotirovkaga ega bo'lmagan yoki kotirovkasi qiyin bo'lgan qimmatli qog'ozlar, asosiy vositalar va boshqalar kiradi. Tezda naqd pul miqdorini oshirish uchun nolikvid aktivlarni sotish zarur bo'lganda bank ularni zarar ko'rgani holda sotishi mumkin.

Bank likvidligining yana bir jihati bankning to'lovga qobiliyatligi bo'lib, uning asosiy belgisi bankning o'z oldida turgan majburiyatlarini o'z vaqtida qondira olish qobiliyatidir.

“Likvidlik” va “to'lovga qobillik” mazmuni, omillari va uni ta'minlovchi sabablarga ko'ra bir-biriga yaqin tushunchalardir. Likvidlik muammosi tashqi jihatdan to'lov majburiyatlarini bajarish jarayonida vujudga keladi va likvid mablag'lar yo'qligi bilan bog'liq qiyinchiliklar tug'ilganda namoyon bo'ladi.

Likvidlik nafaqat to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishni nazarda tutadi, balki o'zining tijorat manfaatlari bilan birga omonatchilar tomonidan ishonch bildirilgan mablag'larning saqlanishini ta'minlaydi.

Bankning to'lovga qobiliyatligi bankka qo'yilgan to'lovlar bo'yicha talablar ayni vaqtda qondira olish qobiliyatini bildiradi. To'lovga qobillikni ma'lum moliyaviy holatning natijasi sifatida qaralishi mumkin. Shu bilan birga, to'lovga qobillik likvidlikka nisbatan ikkilamchidir. Chunki, bankda to'lovga qobillik muammosi sodir bo'lishi mumkin, ammo uning likvid balansi, bankning majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olishini ta'minlovchi qobiliyatini tiklash imkoniyatini beradi.

Bank likvidligi ko'proq bank balansining likvidligi bilan belgilanadi va uning mazmuni, mohiyati aktiv va passiv operatsiyalarning muddati bo'yicha mos kelishidan

iborat. Bank balansining likvidligi ssuda va fond operatsiyalariga yo'naltirilgan mablag'larning xatarlilik darajasi, pul bozorining rivojlanish darajasi va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi.

Bundan tashqari, passivlarning qisqa muddatliligi uzoq muddatli qo'yimalarga ham sarflanishi imkoniyatlarini cheklab qo'ymaydi. Bankning har doim o'z tasarrufida ma'lum miqdorda "begona" pullari bo'ladi. Omonatlarning bankka doimiy oqib kelishi bilan birga ularning qaytarilib olinishi ham doimo sodir bo'lib turadi va bunda bank hisobvaraqlarida doimiy turib qoladigan qarz mablag'lari miqdori barqaror hisoblanadi.

Tijorat banki likvidligini saqlab turish muammosini hal qilish uchun passivlar oqimi harakatchanligi va muddatiga ko'ra aktivlar oqimiga mos kelishi lozim. Shunday qilib, tijorat banki likvidligi bankning ma'lum vaqtdagi to'lovga qobiliyatligini ta'minlovchi va bank likvidligining asosiy omili bo'lgan bank aktivlari va passivlarining nisbati bilan belgilanadi.

Bank likvidligini ta'minlovchi omillardan biri bank passivlarining sifatidir. O'zlik va jalb qilingan mablag'lar nisbati bankning ishonchliligi va faoliyati rivojlanishining istiqbolini xarakterlab beradi. Jalb qilingan mablag'lar oqimining barqarorligi likvidlik muammosini hosil qilmasdan turib, qisqa muddatli resurslarni uzoq muddatli qo'yimalarga yo'naltirish imkoniyatini beradi. Depozitlar bo'yicha ijro muddatining aniqligi balansning likvidligini boshqarish va likvid vositalarga bo'lgan ehtiyojni prognoz qilish imkoniyatini beradi. Bu esa bank barqarorligini ta'minlash imkoniyatini beradi.

Bank likvidligini ta'minlovchi omillardan biri bank tomonidan qarz olish, o'z aktivlarini sotish yo'li bilan yoki o'z majburiyatlarini bajarish uchun mablag' topa olish imkonini beradigan pul bozorining mavjudligidir. Asrimizning 60-yillarida bu omilning roli nihoyatda ortdi. Bunga sabab, erkin muomalada bo'lgan federal depozit sertifikatlari, federal fondlarning qisqa va uzoq muddatli qimmatbaho qog'ozlari, REPO bitimlarining keng qo'llanilishi va buning natijasida balansda foyda keltirmaydigan va

kam daromadli aktivlarning to'planishi bilan bog'liq bo'lgan foyda yo'qotilishini minimallashtirish imkoniyatiga ega bo'linganligidir.

Tijorat banki moliyaviy barqarorligining yana bir komponenti bank faoliyatining foydaligidir. Bank foydasining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, agar ishlab chiqarish sohasida xarajatlar o'zgaruvchan kapital va qisman qo'shimcha qiymat hisobidan qoplansa, banklarda esa muomala xarajatlari to'la, faqatgina qo'shimcha qiymat qismidan qoplanadi.

Foyda olish - bank faoliyati ko'lamini kengaytirish manbalaridan biridir. Agar, bank ishida kapitalga daromad boshqa tijorat tashkilotlariga nisbatan past bo'lsa, kapital qo'llash foydaliroq bo'lgan boshqa sohalarga yo'naltiriladi. Bundan tashqari, foyda rahbariyat faoliyatini rag'batlantiradi, chunki ular operatsiyalar hajmini oshirish va takomillashtirish, xarajatlarni kamaytirish va xizmatlar sifatini oshirganliklari uchun foydaning bir qismini mukofot shaklida olishlari mumkin.

Bank foydasining eng muhim funksiyalaridan biri ko'zda tutilmagan yo'qotishlar holati uchun zaxiralar shakllantirishdir.

Tijorat bankining zararsiz faoliyati uning moliyaviy asosini mustahkamlaydi va aksincha uzoq muddat mobaynida zarar bilan faoliyat ko'rsatish bankni bankrotlikka olib borishi mumkin.

Banklar muomala sohasi korxonasi sifatida o'z foydasini bank operatsiyalarining natijasi bo'lgan bank mahsulotini sotish asosida shakllantiradi. Bank faoliyatining foydalilik darajasi bank faoliyati xarakteri, ixtisoslashuvi, uning kapitalining kattaligi, strukturasi va filiallarining mavjudligi hamda mustaqillik darajasiga bog'liq.

Bank faoliyatining foydaliligi rentabellikning muhim ko'rsatkichlari majmui bilan aniqlanadi. Bu ko'rsatkichlarga: kapitalga foyda me'yori, yalpi aktivlarning daromadliligi va foydaliligi, sof foiz marja, foizsiz yuk, aktivlar tizimi va "ishlovchi" aktivlar salmog'i, passivlar tizimi va to'planadigan passivlar salmog'i, ishlovchi aktivlarning daromadliligi, foizli tashlanma kiradi.

Ichki tahlil nuqtai-nazaridan faoliyatning moliyaviy ishonchliligi va rentabellik tahlili juda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston iqtisodiyotida mavjud bo'lib turgan ma'lum darajadagi inflyatsiya sharoitida foydalilik tahlilining dolzarbligi yanada oshadi. Foydani kamaytirishga sabab bo'luvchi omillarga quyidagilar: balansning nolikvidligi, bunda likvidlik kamomadini to'ldirish uchun qo'shimcha kredit resurslarini jalb qilish zarurati tug'iladi; depozitlarning barqaror emasligi; inflyatsiyaning o'sishi va bu orqali tartibga soluvchi talablar, jumladan, yuqori majburiy zaxiralar talabi ta'siri ostida bo'lgan foiz marjasining pastligi; daromad keltiruvchi aktivlarning noqulay strukturasi, jumladan, kam daromad keltiruvchi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar, foizsiz ssudalar salmog'ining yuqoriligi va to'lovli passivlar. Masalan, resurslar tarkibida bahosi yuqoriroq bo'lgan kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar salmog'ining yuqoriligi; foizsiz daromadlar va foizsiz xarajatlarning salbiy nisbati; ma'muriy-xo'jalik xarajatlarning maqsadga muvofiq bo'lmagan yuqori darajasi; kredit portfelida muddati o'tgan kreditlar salmog'ining yuqoriligi va berilgan kreditlarning foydalanish hamda qaytarilish muddatlarini uzaytirish bilan bog'liq yo'qotishlar; qimmatbahoqog'ozlar qiymatining tushishi; soliqlar darajasining yuqoriligi; muvozanatlashtirilmagan foiz siyosati; hajmi va miqdori jihatidan o'z kapitali miqdorini chegaralovchi asoslanmagan yuqori darajada xatarli bo'lgan bank faoliyatini yuritish kiradi.

1.2 Tijorat banklari to'lovga qobilligini boshqarish bo'yicha xorij tajribasi

Rivojlangan mamlakatlar bank tizimlari bir-biriga o'xshash bo'lib tuyulsada ularning har biri asrlar mobaynida tashkil topgan o'ziga xos bank ishi milliy munosabatlari va ularning tarkibiy qismlariga ega. Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va ularni barqarorligini ta'minlash borasida har qanday davlat ham o'ziga xos tajribalarga ega.

Jahon banklari amaliyotida tijorat banklarining to'lovga qobilligini nazorat qilish uchun ichki va tashqi nazoratni tashkil etishgan bo'lib, bunga turlicha yondashuvlar mavjud. Institutsional nuqtai nazardan bu tizimining tashkiliy tuzulish usullari, markaziy bankning ushbu tizimdagi o'rni va roli bilan farq qiluvchi uch guruh mamlakatlarni ajratish mumkin:

-nazorat faoliyati faqatgina Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan mamlakatlar: Avstraliya, Buyuk Britaniya, Islandiya, Ispaniya, Irlandiya, Italiya, Yangi Zelandiya, Portugaliya.

-nazorat faoliyati markaziy bank tomonidan boshqa organlar bilan birga amalga oshiriladigan mamlakatlar: AQSh - Federal rezerv tizimi(FRT), Moliya vazirligi va mustaqil agentlik - Depozitlarni Sug'urtalsh Federal Korparatsiyasi(DSFK) bilan birgalikda; Shvedsariya - Markaziy bank, Federal Bank Kommissiyasi bilan birgalikda; Fransiya – Fransiya banki, Bank Kommissiyasi bilan birgalikda; Germaniya - Bundesbank, Kredit Nazorati Federal Xizmati bilan birgalikda.

-nazorat faoliyati Markaziy bank tomonidan emas, balki boshqa organlar tomonidan amalga oshiriladigan mamlakatlar: Kanada, Daniya, Lyuksemburg, Shvetsiya, Avstriya, Finlandiya, Norvegiya.

AQShda banklar faoliyatini nazorat etish va boshqarish bizdan farq qiladi. Bugungi kunda AQSh banklarini boshqarish va ularni faoliyatini nazorat etish quyidagi idoralar tomonidan olib boriladi:

1. Federal rezerv sistemasi.
2. Pul muomalasi nazoratchisi barcha milliy banklarni nazorat qiladi.
3. Depozitlarni sug'urtalovchi Federal korporatsiyasi bank va mijozlar depozitlarini sug'urtalaydi, bankrotlikka uchragan banklarga o'z vakolati doirasida yordam beradi.
4. Adliya vazirligi.
5. Qimmatli qog'ozlar va birjalar bo'yicha komissiya.
6. Shtatlardagi bank faoliyati bo'yicha komissiya yoki bank sovetlari yangi banklar ochilishi uchun charterlar beradi va o'z navbatida shtatda charter olgan barcha banklarni doimiy tekshiradi hamda ularni doimiy ravishda nazorat etadi.

Moliyaviy barqarorligini yo'qotgan banklarga DSFK quyigagicha yordam berishi mumkin:

1. Bankrotlikka uchragan yoki barqarorligini yo'qotgan banklarni boshqa bir iqtisodiy baquvvat bank bilan qo'shilishiga yordam berish.
2. Sug'urtalash orqali banklarni bankrotlikni bosib o'tish imkonini vujudga keltirish
3. Bankrotlikka yuz tutgan bankning hisobiga belgilangan miqdorda pul mablag'i o'tkaish orqali bankni saqlab qolish mumkin. 1986-yildan boshlab korporatsiya har haftada tegishli chora ko'rilgan banklar, ularning xizmatchilariga nisbatan ko'rilgan chora tadbirlar to'g'risida matbuot orqali aholini xabardor qilib turadi.

AQShda banklar va jamg'arma muassasalarining faoliyati ham federal darajada, ham shtatlar doirasida tartibga solinadi. AQShda 1913 yilda qabul qilingan Federal zaxira aktiga ko'ra, FZT a'zolari o'zlarining kapitalini 6% foizini FZB kapitaliga badal sifatida o'tkazishlari lozim.

Federal darajada kaznachestva (moliya vazirligining amerikancha ekvivalenti) uning bo'limlaridan biri milliy banklarni tashkil etishga litsenziya beradi va ular

faoliyatini tartibga soladi. Depozitlarni sug'urtalash federal korporatsiyasi har bir deposit muassasasidagi 100 000 AQSh dollarigacha bo'lgan deposit schotlarini sug'urta qiladi.

Angliya bank tizimining o'ziga xos harakatlantiruvchi asosiy qismi va London pul bozorining asosiy qatnashchilari yirik tijorat banklaridan iborat cheklanganguruh hisoblanadi. Ular jumlasiga avvalo mamlakatning yirik "katta to'rtlik" banklari: "Lloyds", "Midland", "Barklayz" va "Neshnl Vestminster" kiradi.

Tijorat banklari va kredit-moliya institutlarining faoliyatini tartibga solish Angliya Banki tomonidan amalga oshiriladi.

1979-yilgi bank qonuni mayda bank depozitorlari va jamg'armachilarini bank inqirozlaridan himoya qilish maqsadida bank depozitorlarini himoyalash tizimini ishlab chiqdi. Bu boshqarma Depozitlarni himoyalash Fondini boshqaradi hamda barcha banklar va depozit qabul qiluvchi muassalar o'z depozit bazalariga nisbatati 0,3%, ammo 300,000 funt sterlingdan oshmagan miqdorda badal to'lashlari shart.

1981-yilda qabul qilingan "Monetar Nazorat to'g'risidagi nizom"ga binoan bank muassalari va depozit qabul qiluvchilarning likvidligini ta'minlash maqsadida bu muassasalar o'z majburiyatlarining 0,5% ini Angliya Bankidagi operatsiyalarda qatnashmaydigan hisob raqamida saqlashlari shart qilib qo'yildi.

1987-yilda qonunga muvofiq vakolatli banklar bu maqomini Angliya bankidan olish uchun quyidagi shartlarga javob berishi shartligi belgilab qo'yildi.

- a) Muassasaning direktorlari, nazoratchilari va boshqaruvchilari o'zlarining lavozimlariga mos bo'lgan tartibli va vijdonli shaxslar bolishi lozim;
- b) Muassasaning faoliyati kamida ikki kishi tomonidan samarali boshqarilmog'i lozim;
- c) Kapitalning yetarliligi, shubhali qarzlarni boshqarish, likvidlik boshqaruvining ichki nazorati kabilarni hisobga olgan holda biznes

ehtiyodkorlik bilan yuritilmog'i lozim.

Germaniya bank tizimida kredit tizimining turli zvenolari o'rtasidagi o'zaro aloqlarining asosi sifatida universallashtirish tamoyili qo'llaniladi. Unga binoan turli kredit muassasalari moliyaviy operatsiyalarini amalga oshirishda bir xil huquqga egadirlar.

Germaniyada tijorat banklari faoliyatini tartibga solish vazifasi Bundesbank va Kredit nazorati Federal Xizmati zimmasiga yuklangan.

Bundesbank faqat birgina real ta'sir vositasiga ega, ya'ni u ham bo'lsa majburiy rezervlashning eng kam miqdorini o'rnatish va tijorat banklari ustidan nazorat qilishning faqatgina ikki instrumentiga ega - bular mablag'larni rezervlash va hisobotlar qabul qilish. Boshqa nazorat funksiyalari Moliya vazirligiga bo'ysinuvchi Kredit Nazorati Federal Xizmati zimmasiga yuklangan.

Germaniyada faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari Bundesbankka bank balansi likvidligining ahvoli haqida har oyning oxirida talab etilgan shakllar bo'yicha hisobot topshiradilar.

Fransiya bank tizimi ham dunyodagi eng qadimgi va hozirgi kunda taraqqiy etgan tizimlardan biri sanaladi, shu sababli ham bizninplm uning tajribasini o'rganish foydadan xoli emas.

Dunyoning 27 davlati markaziy banklarini birlashtiruvchi Bank nazorati bo'yicha bazel qo'mitasi a'zolari "Bazel III" nomini olgan bank faoliyatida kapital va likvidlikka nisbatan yangi xalqaro standartlarni ma'qullagach, bank sektorini tartibga solishda kutilayotgan o'zgarishlar ilmiy muhokamalarning bosh mavzusiga aylandi. Shunga qaramay, ushbu yangi hujjatning inqirozdan keyingi davrda bank faoliyatini tartibga solish tizimini isloh qilish va takomillashtirishga xizmat qilishi xususida iqtisodchi olimlar, siyosatchilar va ekspertlarning qarashlari doimo ham bir –biriga mos kelavermaydi.

"Bazel III" ga to'xtaladigan bo'lsak, bu yangi hujjat doirasidagi choralar quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

*bank sektorining moliyaviy-iqtisodiy tanglikdan kelib chiqadigan inqirozlarga qarshi tura olish imkoniyatini yuksaltirish;

*xatar-menejment va boshqaruv sifatini oshirish;

*bankning shoffofligini kuchaytirish.

Bu o'rinda shuni ham ta'kidlash o'rinliki, "Bazel III" nomi bilan aytilayotgan yangi standartlar amaldagi "Bazel II" ni inkor etmagani holda, uning yangi tahriri ham emas. Boshqacha aytganda, bu ikki konsultativ hujjat bir paytning o'zida, parallel ravishda muomalada bo'ladi. Bazel qo'mitasi a'zolari "Bazel III" borasida ilk bor 2009-yil 8-9-dekabr yig'ilishida qator tavsiyaviy harakterga ega bo'lgan hujjatlar ("Bank sektori barqarorligini oshirish", "likvidlik xatarini o'lchash", "Standartlar va monitoring bo'yicha xalqaro yondashuvlar") ma'qullandi. Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining konsultativ hujjatlaridagi yangi tavsiyalar inqiroz saboqlarini hisobga olgan holda banklarda nazaorat va xatarlarni boshqarishni takomillashtirishga qaratilgan:

*bank kapitali sifati va shaffofligini oshirish yuzasidan amaldagi standartlarni(Bazel II) qayta ko'rib chiqish, xususan, I darajali kapitalning muhim va yetakchi shakllari sifatida oddiy aksiyalar va taqsimlanmagan foydaga ustuvorlik berish;

*sekyuritatsiyalangan pozitsiyalar bo'yicha bank kapitaliga nisbatan qo'shimcha talablarni belgilash;

*kapital yetarliligini baholovchi qo'shimcha ko'rsatkich – leveraj koeffitsientini(o'z mablag'lari va qarz mablag'lari nisbati) kiritish. Bunda koeffitsientning o'rtacha choraklik darajasi hisoblanadi va dastlabki bosqichda uning me'yoriy darajasi 3 foiz deb belgilanadi;

*siklik salbiy ta'sirni kamaytirish maqsadida iqtisodiy o'sish fazasida regulyativkapitalga qo'yilgan minimal talablardan oshadigan kapital zaxirasini shakllantirishga nisbatan qo'shimcha talablarni joriy etish, shuningdek, ehtimoliy yo'qotishlarga nisbatan zaxiralarni shakllantirish;

*xalqaro bozorlarda faoliyat yuruyuvchi banklar uchun likvidlikni boshqarish bo'yicha qo'shimcha talablarni, xususan, yaqin 30 kun mobaynida bankning o'z faoliyatini davom ettirish qobiliyatini baholash imkonini beruvchi minimal likvidlik koeffitsentini, shuningdek, bir yillik vaqt diagnozidabank likvidligini baholash imkonini beradigan uzoq muddatli likvidlik koeffitsentini joriy etish.

Bundan tashqari, qo'mitaning 2009-yil dekabrda tavsiyalariga ko'ra, bankning boshqa moliyaviy masalalariga oddiy aksiyalariga qo'yilmalari bank oddiy aksiyalarining 10 foizidan oshadigan bo'lsa, qo'yilmalarning 10 foizdan ortgan qismi hisobga olinmaydi.

Bazel qo'mitasining 2010-yil iyul oyidagi yig'ilishida bank sektorini tartibga solish bo'yicha islohotlar dasturining asosiy elementlari kelishib olindi. Bunda Bazel qo'mitasining "Bazel III" bo'yicha 2009-yil dekabrda ma'qullangan talqini biroz yangilashirildi. Jumladan banklar kapitalining 15 foizdan oshmaydigan miqdorda konsolidatsiyalashmagan moliyaviy muassasalarning oddiy aksiyalariga "sezilarli" (ya'ni ustav kapitalining 10 foizidan ko'p) investitsiyalar kiritishga, foyda solig'ini kamaytirish imkonini beradigan, aktivlarni (DTAs-deferred tax assets) shakllantirish va ipoteka kreditlariga xizmat ko'rsatish huquqiga ega bo'lishga ruhsat berildi. Bunda tijorat banki yuqoridagi uch vosita yalpi qiymatining bankning birinchi darajali kapitali tarkibidagi oddiy aksiyalar qiymatining 15 foizidan oshadigan qismi hisobga olinmaydi.

Shuningdek, Bazel qo'mitasi tomonidan bank faoliyatida uzoq muddatli likvidlikni tartibga solish maqsadida sof barqaror mablag'lar koeffitsentini joriy etish masalasi ham qo'yilgan bo'lib, bu borada yakuniy to'xtamga kelinmagan. Shunga qaramay, sof barqaror mablag'larkoeffitsentining yangicha variantini minimal standart sifatida 2018-yilning yanvar oyidan kiritish ko'zda tutilgan.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, bank tizimida 2013-yildan boshlab kapitalni tartibga solishda jiddiy o'zgarishlar yuz berishi kutilmoqd. Xususan, kapital sifatiga bo'lgan talab keskin oshadi.

I darajali kapitalning yetarliligi darajasi 2015-yildan boshlab 6 foiz etib belgilandi. Ayni paytda, yangi standartlarga o'tish mobaynida bazaviy kapitalning me'yoriy darajasi 4,5 foizga ortadi. Bunda bazaviy kapital oddiy aksiyalar, taqsimlanmagan foyda va oddiy aksiyalarni joylashtirishdan olinadigan emission daromadidan tashkil topadi. Bundan tashqari, sof foydadan shakllantiriladigan maxsus zaxira kapitaliga minimal talabni 2016-yildan o'tish davrining oxiri – 2019-yilgacha bosqichma bosqich joriy etish rejalashtirilgan. Uning me'yoriy darajasi o'tish davri tugagach, 2,5 foizdan kam bo'lmasligi lozim(1-jadval) Keyinchalik esa, kapital tarkibida yana bir qo'shimcha zaxira – kontrsiklik buferini ham joriy etish nazarda tutilgan bo'lib, hozirda u muhokama obyektiga aylandi.

1-jadval

Bank kapitali bo'yicha "Bazel III" talablarini joriy etish muddatlari (har bir yilning 1-yanvar holatiga, foizda)¹¹

Yillar	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019
Ko'rsatkichlar							
Oddiy aksiyalarga minimal talab(Minimum Common Equity Capital Ratio)	3.5	4.0	4.5	4.5	4.5	4.5	4.5
Maxsus zaxira kapitali(Capital Conservation Buffer)				0.625	1.25	1.875	2.50
Oddiy aksiyalarga minimal talab + maxsus zaxira kapitali	3.5	4.0	4.5	5.125	5.75	6.375	7.0
I darajali kapitalga minimal talab(Minimum Teir I Capital)	4.5	5.5	6.0	6.0	6.0	6.0	6.0
Umumiy kapitalga minimal talab(Minimum Total Capital)	8.0	8.0	8.0	8.0	8.0	8.0	8.0
Umimiy kapitalga minimal talab + Maxsus zaxira kapitali	8.0	8.0	8.0	8.625	9.25	9.875	10.5

Qator rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda "Bazel III" standartlarini 2013-yildan boshlab joriy etish mo'ljallanayotgan bo'lib, har bir davlat milliy bank tizimining yangi talablarga qanchalik javob berishi xususida qayg'urmoqda.

¹¹ Basel Committee on Banking Supervision(www.bis.org).

Shuningdek, Xalqaro amaliyotda tijorat banklari likvidligini miqdor va sifat jihatdan baholash uchun bankning moliyaviy barqarorligi, ishonchligi va uning faoliyati havfsizligini aks ettiruvchi turli xil ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Bir qator davlatlarda likvidlik ko'rsatkichi qonuniy jihatdan belgilab qo'yiladi, ya'ni uning yo'l qo'yish mumkin bo'lgan darajasi o'rnatiladi.

Shunga qaramay, AQShda huquqiy yoki me'yoriy jihatdan likvidlik me'yorlari qat'iy belgilanmagan. Boshqacha aytganda, AQShda likvidlik me'yorlarini belgilash va ularga rioya qilinishi ustidan nazorat o'rnatish bank rahbariyatining vazifasi sanaladi.

Ayni paytda, tijorat banki likvidligini baholash ko'rsatkichlarini tanlashda quyidagilarga alohida e'tibor qaratiladi:

- Bank faoliyat ko'rsatadigan bozor;
- Bank turi yoki shakli;
- Bank operatsiyalari tarkibi va ko'lami.

Jumladan, AQShda likvidlikni baholash maqsadida quyidagi keltirilgan ko'rsatkichlarning bankning jalb qilingan mablag'lariga (depozitlar) nisbatidan foydalaniladi:

- kassa aktivlari (birlamchi zaxiralar);
- kassa aktivlari va davlat qimmatli qog'ozlarga qo'yilmalar (birlamchi + ikkilamchi zaxiralar);
- berilgan kreditlar.

Ta'kidlash lozimki, bank likvidligini ta'minlash uchun birlamchi zaxiralarning depozitlarga nisbati ko'rsatkichining darjasi 5-10 foizdan kam bo'lmasligi maqsadga muvofiq sanaladi.

Shuningdek, AQSh banklari amaliyoti ko'rsatishicha, tijorat banklari tomonidan likvidlikni boshqarishda quyidagi moliyaviy koeffitsentlardan ham foydalanilmoqda:

1. Pul pozitsiyasi ko'rsatkichi: (pul mablag'lari+jamg'arma muassasalari tomonidan qo'yilmalar) /jami aktivlar
2. Likvidli qimmatli qog'ozlar ko'rsatkichi: AQSh Hukumatining qimmatli qog'ozlari/jami aktivlar
3. Federal zaxira fondlarining netto pozitsiyasi: (federal zaxira fondlarining sotiladigan qoldiqlari-federal zaxira fondlarining sotib olinadigan qoldiqlari) / jami aktivlar
4. Mavjud quvvatlardan foydalanish koeffitsenti: (sof kreditlar+ijaradagi aktivlar) / jami aktivlar.
5. Garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlarning solishtirma salmog'i: garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar / bankning qimmatli qog'ozlar portfeli.
6. Harakatdagi pulning solishtirma salmog'i: pul bozori aktivlari/ pul bozori majburiyatlari.
7. Foiz stafkalari o'zgarishiga moyil majburiyatlarga qisqa muddatli investitsiyalarning nisbati: qisqa muddatli investitsiyalar/foiz stafkalari o'zgarishga moyil majburiyatlar.
8. Qo'yilmalarning tuzilmaviy nisbati: talab qilib olinguncha depozitlar/muddatli depozitlar.
9. Asosiy depozitlar ulushi: saosiy depozitlar/jami aktivlar.
10. Brokerlik depozitlari ko'rsatkichi: brokerlik depozitlari/jami depozitlar

Yuqoridagi holatlar shunday dalolat beradiki, mamlakat bank tizimi rivojlalanib borgan sari likvidlik bo'yicha normativlar soni va unga bo'lgan talab ham oshib borishi mumkin. Zero, iqtisodiyot taraqqiy etishda birlamchi ko'rsatkich – bu aholi turmush tarzining yaxshilanishi bo'lib, unga alohida e'tibor qaratiladi. Shu boisdan, iqtisodiyotda barcha yuridik va jismoniy shaxslarning omonatlari, manfaatlari va huquqlarini kafolatlash hukumatining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Fikrimzcha, respublikamiz tijorat banklari menejment tizimida ham yuqoridagi kabi moliyaviy koeffitsentlardan foydalanish va ularni doimiy kuzatgan holda tahlil qilib borish foydadan holi bo'lmaydi.

Shunisi e'tiborga molikki, AQSh federal zaxira tizimining CAMELS tizimi orqali likvidlikni baholashga nisbatan pozitsiyasi likvidlikni zaxiralar va passivlar orqali o'lchab bo'lmasligini nazarda tutadi. Boshqacha aytganda, bank likvidligi moliyaviy barqarorlikning barcha omillariga, xususan, kredit portfeli sifati va bank faoliyati samaradorligi uzviy bog'liqdir.

Fransiyada likvidlik koeffitsenti to'lov muddati uch oygacha bo'lgan joylashtirilgan mablag'lar, tez sotiladigan qimmatli qog'ozlar va naqd pul mablag'lari summasining talab qilib olinguncha va 3 oy muddatga qadar jalb qilingan mablag'lar summasiga nisbati orqali aniqlanadi. Ushbu koeffitsent har chorakda hisoblanadi va uning 60 foizdan kam bo'lishiga yo'l qo'yilmaslik talab etiladi. Demak, tijorat banklari resurslarining qolgan 40 foizini uzoq muddatga joylashtirishlari mumkin.

Angliyada esa likvidlik koeffitsenti naqd pullar, "nostro" hisob raqami qoldig'i talab qilinib olinguncha va bir kungacha joylashtirilgan aktivlar qimmatli qog'ozlar(qayta hisobga olingan veksellarni ham qo'shgan holda) summasini jami jalb qilingan mablag'lar orqali aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkichning minimal darajasi 12.5 foizni tashkil etadi va unga rioya qilish bo'yicha banklar har oyda muntazam ravishda hisobot berib borishlari lozim.

Bundan tashqari, Angliya tijorat banklari boshqa qator koeffitsentlarini ham hisoblanadilar. Biroq bu ma'lumot harakterga ega bo'lib, ular bo'yicha Markaziy bankka hisobot topshirish talab etilmaydi.

Bunday koeffisientlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- kassa koeffitsenti (likvid aktivlar va overdraft shaklidagi kreditlar summasining jalb qilingan mablag'lariga nisbati);
- bir oylik koeffisient (bir oygacha muddatga joylashtirilgan aktivlarning bir oyga qadar so'ndiriladigan majburiyatlarga nisbati);

- 6 oylik koeffisient (6 oygacha muddatga joylashtirilgan aktivlarning 6 oyga qadar so'ndiriladigan majburiyatlarga nisbati);

2009-yilning oktabr oyiga kelib buyuk britaniya kredit tashkilot uchun likvidlik talablari bo'yicha yakuniy qoidalar joriy etildi¹². Bu mahalliy banklar va xorijiy banklarning buyuk britaniyadagi filiallarning va shoxobchalari uchun ta'luqli bo'lib, o'zini-o'zi ta'minlash(self-sufficiency) va likvid resurslari yetarliligi (Adequacy of liquid resources) tamoillariga asoslanadi. Buyuk britaniya banklari individual asosda o'z likvidligini monitoring qilishi av boshqarishi lozim bo'lib, bunga ularning yalpi likvidlik yetarliligi tartibini bajarishda boshqa guruhlarga tayanishlari ta'qiqlanadi.

Germaniya bank amaliyotida ham qariyb o'xsha koeffisientlari foydalaniladi, biroq likvidlik koeffisienti uzoq muddatga, ya'ni 4 yil va undan ortiq muddatga joylashtirilgan aktivlarning huddi shunday muddatga jalb qilingan mablag'larga nisbatini o'zida ifoda etadi. Bundan tashqari qisqa va o'rta muddatga (4 yil qadar)

Joylashtirilgan aktivlarning tegishli muddatga jalb qilingan mablag'larga nisbati koeffisienti han hisoblanib, ular bo'yicha banklar hisobot berib turadilar. Mazkur koeffisientlarning me'yoriy darajasi 100 foiz etib belgilangan. Bundan ko'zlangan maqsad qisqa muddatli ssudalarning o'rta va uzoq muddatli qo'yilmalrga aylanishi qisqartirishdir.

Yaponiya mamlakatida tijorat banklari likvidligini tartibga solishda joriy likvidlik koeffitsentidan foydalaniladi va uning me'yoriy darajasi minimum 30 foiz etib belgilangan. MDH davlatlari orasida Rossiya federatsiyasi bank tizimida likvidlikni tartibga solishda 5 ta me'yoriy ko'rsatkichdan foydalaniladi:

- lahzali likvidlik koeffisienti(min 20foiz)
- joriy likvidlik me'yori(min. 50 foiz)
- uzoq muddatli likvidlik me'yori(max. 120 foiz)

¹² The UK Financial Services Authorities liquidity requirements// Funding patterns and liquidity management of inter-nationally active banks CGFS Papers, No39, May 2010.- p.25

- umumiy likvidlik me'yori(min. 20 foiz)
- qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha likvidlik me'yori(min. 10 foiz)

Shuningdek, MDH davlaridan biri hisoblangan Qozog'iston bank tizimida likvidlikni tartibga solishda bitta asosiy va ikkita qo'shimcha likvidlik koeffitsentlaridan foydalaniladi. Asosiy koeffitsent lahzali likvidlik koeffitsenti hisoblansa qo'shimcha koeffitsentlarga muddatli majburiyatlar bo'yicha likvidlik koeffitsenti va muddatli majburiyatlar bo'yicha bosh likvidlik koeffitsenti kiradi.

Bunda lahzali likvidli koeffitsenti quyidagiformula orqali hisoblanadi

$$K(l)=\text{likvidlik aktivlar}/\text{talab qilib olinguncha majburiyatlar}*100\%$$

Ushbu koeffitsentning darajasi quyidagicha belgilanadi:

- 1) 30 foiz – kritik zona;
- 2) 30-40 foiz bank o'zining joriy majburiyatlar bo'yicha to'lovlarning o'z vaqtida amalga oshira oladi degan xulosa beriladi;
- 3) 40-70 foiz – yo'l qo'yish mumkin bo'lgan daraja.

Mazkur koeffitsent bankning mijozlarga ularning to'lov topshiriqnomalarini qanchalik tez bajara olish imkoniyatini belgilab beradi. Shu tariqa bankning hisob-kitob kassa xizmatlari bilan qiziqadigan mijozlar uchun bu ko'rsatkich muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ushbu koeffitsent 100 foizdan yuqori bo'lsa bank talab qilib olinguncha depozitlar bo'yicha to'lovlarni bajara oladi va to'lov qobiliyatiga ega hisoblanadi.

Shuningdek, muddatli majburiyatlar bo'yicha likvidlik koeffitsenti quyidagicha aniqlanadi: $K(mml)=(\text{likvidlik aktivlar}-\text{talab qilib olinguncha majburiyatlar})/\text{muddatli majburiyatlar}*100\%$

Ushbu koeffisient bank faoliyati tugatiladigan taqdirda muddatli majburiyatlarning qancha qismini qaytara olishi kafolatlanganligini ko'rsatadi. Ma'lumki, bank faoliyati tugatilganda birinchi navbatda talab qilib olinguncha majburiyatlar so'ndiriladi. Muddatli majburiyatlar esa asosan berilgan kreditlar hisobidan qaytariladi, ammo bank faoliyati tugatilganda berilgan kreditlar hisobidan qaytariladi. Ammo, bank faoliyati tugatilganda berilgan kreditlar bo'yicha risk darajasi yanada ortadi.

Shuning uchun, tijorat bankining muddatli majburiyatlarini likvid aktivlar hisobidan qaytarish imkoniyati aksariyat mijozlar uchun juda muhim hisoblanadi.

Mazkur koeffitsentning darajasi quyidagicha belgilaniladi:

- 1) 50%-kritik holat;
- 2) 25%-yo'l qo'yiladigan daraja/

Muddatli majburiyatlar bo'yicha bosh likvidlik koeffisienti esa quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$K(bl) = \frac{\text{likvid aktivlar} + \text{kapital qo'yilmalar} - \text{talab qilib olinguncha majburiyatlar}}{\text{muddatli majburiyatlar}} * 100\%$$

Ushbu koeffisient muddatli majburiyatlarning qancha qismi tijorat bankining likvid aktivlari va kapital qo'yilmalari hisobidan qaytarilishi kafolatlanganligini ko'rsatadi. Mazkur koeffisientning oldindan koeffisientdan farqi shundaki, bunda bank muddatli majburiyatlarning qancha qismini maksimal qaytarib berish imkoniyati borligini namoyon bo'ladi.

Uning me'yoriy darajasi quyidagicha belgilanadi:

- 1) 25% kritik holat;
- 2) 50% o'rtacha;

Ta'kidlash lozimki, yirik banklar uchun bu qo'shimcha ikkita likvidlik koeffitsentlarining o'rtacha yoki kritik darajasining belgilash murakkab hisoblanadi. Chunki ularning faoliyati juda yirik amaliyotlar bilan bog'liq. Mazkur

koefitsentlar Qozog'iston Respublikasi bank tizimining likvidlikni boshqarish va to'lov qobiliyatini doimiy ta'minlash, aholi va mijozlarning bankka bo'lgan ishonchini mustahkamlash uchun qo'llaniladi.

Hozirgi kunda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va uning xalqaro bank tizimiga salbiy ta'siri, bank faoliyatini tartibga solishdagi mavjud nuqson va kamchiliklar, umuman olganda, inqiroz sabablaridan kelib chiqib, banklarda likvidlikni tartibga solishga nisbatan talablarni kuchaytirish xalqaro bank jamiyati tomonidan ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof qilmoqda. Xususan, bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining "Bazel-III" deya atalmish yangi talablarning muhim tarkibiy qismi hisoblangan "likvidlik riskini o'lchash, standartlar va monitoring bo'yicha xalqaro yondashuvlar" nomli hujjatda tijorat banklari likvidligini tartibga solishni tubdan isloh qilish bo'yicha yangicha yondashuvlar berilgan¹³.

"Bazel-III" ga muvofiq, tijorat banklari likvidligini tartibga solish bo'yicha ikkita koefitsentini (liquidity coverage ratio, net stable funding ratio) joriy etish ko'zda tutilmoqda. Jumladan, joriy likvidlik koefitsenti(liquidity coverage ratio(LCR)) 2015-yil 1-yanvardan boshlab joriy qilinadi. Bunda joriy koefitsenti quyidagicha aniqlanadi:

$LCR = (\text{yuqori sifatli likvid aktivlar zaxirasi}) / (\text{30 kun mobaynidagi sof pul chiqimlari}) \geq 100\%$

Ushbu koefitsent banklarning yuqori sifatli likvid aktivlari zaxirasi yaqin 30 kun mobaynida kutilishi mumkin bo'lgan pul chiqimlari-majburiyatlarni qay darajada qoplay olishini anglab, uning

Ushbu koefitsent banklarning yuqori sifatli likvid aktivlari zaxirasi yaqin 30 kun mobaynida kutilishi mumkin bo'lgan pul chiqimlari-majburiyatlarni qay darajada qoplay olishini anglab, uning me'yoriy darajasi minimum 100% etib

¹³ "International Framework for liquidity risk measurement, Standards and Monitoring", Basel Committee on banking Supervision, December 2009 // www.bis.org.

belgilanadi.

Bu o'rinda yuqori sifatli likvid aktivlarga quyidagicha xususiyatlar xosdir:

- 1) fundamental xususiyatlar: a) kredit va bozor riskining pastligi; b) qiymatini baholashning aniqligi va soddaligi; c) riskli aktivlar bilan kuchsiz korrelatsiyaga ega ekanligi; d) rivojlangan va taniqli birjalar listingidan joy olishi.
- 2) bozor xususiyatlari: a) faol va yuqori aylanmali bozorga ega bo'lishi; b) market-markerlarning mavjudligi; c) bozor konsentratsiyasining pastligi; d) sifat tomon "uchish" (flight to quality) tendensiya (tarixan, bozorlar tizimli inqiroz sharoitida muayyan aktivlardagina o'sish tendensiyalarini saqlab qoladi).

Ikkinchi koefitsent sof barqaror manbalar koefitsenti (The Net Stable Funding Ratio (NSFR)) deb nomlanib, 2018-yil 1-yanvardan boshlab joriy etiladi va quyidagicha aniqlanadi:

$$NCFR = \frac{\text{barqaror manbalarning mavjud miqdori}}{\text{barqaror manbalarning talab qilingan miqdori}} \geq 100\%$$

Bunda barqaror manbalar tijorat bankining kapitali bir yil va undan ortiq muddatda so'ndiriladigan qarz majburoyatlari bank deposit bazasining barqaror qismi kapitallardan tashkil topadi. Barqaror manbalarning talab qilingan miqdori bank aktivlari aktivlar turiga qarab belgilangan omilga ko'paytirish orqali aniqlanadi. Bunda omillar bank aktivlari turiga qarab quyidagicha belgilanadi:

- 1) Naqd pul, pul bozori instrumentlari, bir yildan kam muddatda so'ndiriladigan qimmatli qog'ozlar, boshqa moliyaviy muassasalarga berilgan kreditlarning bir yildan kam muddatdan so'ndiriladigan qismiga 0%;
- 2) Hukumat, markaziy banklar, AA va undan ortiq reytingga ega bo'lgan ko'p tomonlama taraqqiyot banklarning bir yil va undan ortiq muddatga so'ndiriladigan qimmatli qog'ozlariga 5%;

- 3) Bir yil va undan ortiq muddatda so'ndiriladigan kamida AA reytingiga ega bo'lgan korporativ obligatsiyalariga 20%;
- 4) Yirik birjalar va kapital bozori indekslariga kiritilgan aksiyalar va likvid bozorlarda faol savdo – qilinadigan bir yil va undan ortiq muddatga ega va AA–dan A-gacha reytinga ega bo'lgan korporativ obligatsiyalar, korporativ mijozlarga berilgan kreditlarning bir yildan kam muddatda so'ndiriladigan qismiga 50%;
- 5) Chakana mijozlarga beriladigan kreditlarning bir yildan kam muddatga so'ndiriladigan qismiga 85%;
- 6) Boshqa aktivlarga 100%.

Umuman olganda, sof barqaror manbalar koeffitsenti bankning aktiv operatsiyalarini o'rta va uzoq muddatda moliyalashtirish imkoniyatini yanada oshirishni ko'zda tutadi. Fikrimizcha, bank amaliyotiga yuqorida ta'kidlangan likvidlik koeffitsentlarning joriy etilishi bank faoliyatining barqarorligi va to'lov qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi. Biroq, bank aktivlari tarkibida yuqori miqdordagi likvidlik mab'laglarning saqlab turilishi bank faoliyatining rentabilligiga daromadlik darajasiga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Umuman olganda, bank likvidlifgini tartibga solish joriy amaliyotining tahlilidan kelib chiqib quyidagilarni xulosa qilish mumkin

-xorijiy banklarning likvidligi, balans likvidligini ifodalovchi va balans asosida hisoblanuvchi moliyaviy koeffitsentlar, shuningdek ma'lum davrlarda aktivlar va passivlar oborotini hisobga olgan holda likvid mablag'larga bo'lgan potensial ehtiyojni aniqlash asosida o'lchanadi;

-ba'zi xorijiy mamlakatlarda, masalan AQShda likvidlik me'yorlari regulator tomonidan belgilanmagan likvidlik me'yorlarini belgilash va unga rioya qilish bank rahbariyatining vazifasiga kiradi;

Likvidlikni tartibga solish bo'yicha Bazel tartiblari tijorat banklari joriy likvidligini oshirishni taqozo etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitustiyasi. T.: Adolat, 1999.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. T.: Adolat, 1999.
3. O'zbekiston Respublikasining «Markaziy banki to'g'risida»gi Qonuni. - T.: Sharq, 1995.
4. O'zbekiston Respublikasi «Banklar va bank faoliyati to'grisida»gi. Qonuni. - T.: Sharq, 1996.
5. O'zbekiston Respublikasining «Garov to'g'risida»gi Qonuni, 1998-yil 1-may
6. O'zbekiston Respublikasi «Valutani tartibga solish to'g'risida»gi Qonuni, T.: «Xalq so'zi» gazetasi, 2003-yil 11- dekabr, yangi tahriri.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora – tadbirlari to'g'risida» gi Farmoni, 2005 yil 15 iyun, «Xalq so'zi» gazetasi № 35
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli «2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida» Qarori 2010- yil 15-dekabr, «Xalq so'zi» gazetasi № 14
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora – tadbirlari to'g'risida» gi qarori 2005 yil 15 aprel, «Xalq so'zi» gazetasi №27.
10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998 yil 2 noyabrda tasdiqlangan 422-sonli «Bir qarzdor yoki o'zaro daxldor bo'lgan qarzdorlar guruhiga to'g'ri keluvchi tavakkalchilikning eng yuqori darajasi to'g'risida»gi nizom
11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998 yil 2 dekabrdagi «Tijorat banklarining kreditlari bo'yicha foizlarni o'stirmaslik siyosati to'g'risida»gi nizom
12. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998 yil 2 dekabrdagi «Tijorat banklari likvidligini boshqarishga bo'lgan talablar to'g'risida»gi nizom
13. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2000 yil 22 fevraldagi 432-sonli «O'zbekiston Respublikasi banklarida kredit hujjatlarini yuritish tartibi to'g'risida»gi Nizom
14. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2000 yil 26 apreldagi 420-sonli «Tijorat banklari kapitalining yetarliligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida»gi Nizom
15. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2005 yil 20 iyundagi 632-sonli «Tijorat banklari tomonidan aktivlar sifatini tasniflash, ular bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar o'rnini qoplash uchun tashkil etiladigan zaxiralarni shakllantirish va ulardan foydalanish Tartibi».
16. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi tomonidan 2005 yil 28 mayda tasdiqlangan 610-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Ochiq valuta pozistiyasini o'tkazish Qoidasi»

17. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'qrisida. - : T.: "Uzbekiston", 2005
18. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlash va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: “O'zbekiston”, 2005y.
19. Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. 12.2009
20. Prezident Islom Karimovning 2010 yilning asosiy yakunlari va 2011 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.
21. “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari/I. A. Karimov”-T.: O'zbekiston, 2009. – 8b.
22. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. I. A. Karimov”-T.: O'zbekiston, 2012-yil.
23. Эдвин Дж. Долан и др. Деньги, банковское дело и денежно-кредитная политика. – СПб.: “Санкт-Петербург Оркестр”, 1994. – С. 90-93.;
24. К.Барлтроп и Д.МакНотон. Банковские учреждения в развивающихся рынках.-Всемирный банк, Вашингтон, 1993.- С. 53-54.;
25. Лаврушин О.И. Управление деятельностью коммерческого банка.- М.:ЮРИСТЪ, 2003.- С. 228.;
26. Носкова И.Я. Валютные и финансовые операции. – М.:ЮНИТИ, 1998. – С.46
27. Вахабов А.В. Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. В 2-х т. – Ташкент: Университет, 2003. – 538 с.; 3.5.
28. Жумаев Н.Х., Кудайбергенов Ж.Ш. Международные финансовые отношения. Валютный курс и пути их регулирования. –Ташкент: Iqtisod-Moliya, 2006.
29. “Bankovskiy menejment” darslik. M.: “Knorus” 2009-yil. 207-bet. O.I. Lavrushin
30. “Bank ishi” darslik. –T.: “Iqtisod-Moliya ”, 2009 yil. 149-bet. Yo. Abdullayev, T. Qoraliyev, Sh. Toshmurodov, X. Abdullayeva
31. “Pul, kredit va banklar”.darslik –T.: “Iqtisod-Moliya ”, 2007 yil. 322-bet. Abdullayeva Sh. Z
32. Abdullaeva. Sh.Z.Bank risklari va kreditlash. T., «Moliya», 2002.
33. Basel Committee on Banking Supervision
34. The UK Financial Services Authorities liquidity requirements// Funding patterns and liquidity management of inter- nationally active banks CGFS Papers, No39, May 2010.- p.25
35. “International Framework for liquidity risk measurement, Standarts and Monitoring“, Basel Committee on banking Supervision, December 2009 //
36. Ahbor-Reyting ” reyting agentligi. Bank tizimi tahlili №30, fevral 2013-y.

37. Batrakova L.G “Analiz protsentnoy politiki kommercheskogo banka”, Moskva “Logos”, 2002
38. Belyakov A.V. Bankovskie riski: problemi ucheta, upravleniya i regulirovaniya. – M.: Izdatelskaya gruppa «BTsD-press», 2003.
39. Blank I.A. «Upravlenie aktibank » M. 2002
40. GryuningX.van, BrayovichBratanovich S. “Analiz bankovskix riskov. Sistema otsenki korporativnogo upravleniya finansovim riskom”, Per.s. angl. d.e.n. K.R. Tagirbekova – M:Iz.”Ves mir», 2004g.
41. Lavrushin O.I. Upravlenie deyatelnostyu kommercheskogo banka (bankovskiy menedjment). M. Yurist, 2003.
42. Menshikov I.S. «Finansoviy analiz tsennix bumag» M. 1998
43. Obzor Bazelskogo soglasheniya po kapitalu.- Bazel: BMR, 2003
44. Xoxlov N.V. Upravlenie riskom: ucheb. posobie dlya vuzov. – M.:YuNITI-DANA, 2001.
45. Abdullaeva SH.Z. Bank ishi . Darslik- T. "IQTISOD-MOLIYA", 2007.
46. SH.Z. Abdullayeva. Bank risklari va kreditlash . Moliya. 2002.
47. SH.Z.Abdullaeva , M. Fayzullaeva, O. Galak, D. Abidinova. Bankovskiy menejment i marketing ."IQTISOD-MOLIYA", 2007.
48. Pul,Bozor,Kredit. 2010-yilgi sonlari.
49. Bank axborotnomasi.2010-yilgi sonlari.
50. Internet saytlari;
www.banking.com
www.banking.com/aba/
www.bis.org
www.cbu.uz
www.worldbank.org
www.imf.org